



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-mart

130-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

### **Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi PF–35-son Farmoni ijrosi haqida”gi 135-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi PF–35-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 135-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 135-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-fevraldagi PF–35-son Farmoni bilan:

Mulkchilik shaklidan qat’i nazar bir yoki bir nechta xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat tashkilotlariga muayyan tovarlarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish) yoki sotish yoxud sotib olish, shuningdek, yagona operatorlik xizmatlarini ko‘rsatish uchun quyidagilar:

(a) qonunchilik hujjatlari bilan istisno tariqasida berilgan ruxsat (huquq);

(b) umumiy tartibdan tashqari ravishda berilgan yakka tartibdagi litsenziya (ruxsatnoma) asosida taqdim etilgan mutlaq huquq eksklyuziv huquq sifatida e’tirof etilishi;

Bunda tanlov (tender) asosida taqdim etilgan litsenziyalar (ruxsatnomalar) eksklyuziv huquq sifatida e’tirof etilmasligi;

Eksklyuziv huquqlar berilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar mazkur huquq doirasida ishlab chiqaradigan, sotadigan yoki sotib oladigan tovarlar (ish va xizmatlar) narxlari (tariflari) yoki ularning cheklangan darajalarini tartibga soluvchi koeffitsiyent, ustama yoki cheklangan rentabellik narxlarni tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan ularni tasdiqlash orqali tartibga solinishi belgilanganligi;

2025-yil 1-apreldan boshlab eksklyuziv huquq xo‘jalik yurituvchi subyektlarga O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari bilan 3 yildan ortiq bo‘lmagan muddatga faqat quyidagi maqsadlar uchun berilishi belgilanganligi:

(a) konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyatini, davlat va jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash;

(b) tabiiy ofatlar, halokatlar va epidemiyalarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish;

Eksklyuziv huquqlar berilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning reyestriga (keyingi o‘rinlarda — Reyestr) kirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga oxirgi kalendar yilda tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi miqdoridan qat’i nazar quyidagi talablar qo‘yilishi:

(a) iste’molchilarning zarur hajmdagi tovarni va lozim darajadagi sifatli tovarni olishga bo‘lgan huquqlari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

(b) tovarni realizatsiya qilishda yoki olishda kamsituvchi shart-sharoitlarni belgilamaslik;  
(v) tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish imkoniyati bo'la turib, shartnoma tuzishni asossiz ravishda rad etmaslik;

(g) narxlarini davlat tomonidan tartibga solish qo'llaniladigan tovarlar uchun belgilangan narxdan ortiq haq olmaslik, shuningdek, ko'rsatilmagan xizmatlar yoki bepul ko'rsatilishi kerak bo'lgan xizmatlar uchun haq olmaslik;

2025-yil 1-apreldan boshlab quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha eksklyuziv huquqlari bekor qilinganligi:

(a) "O'zbekekspertiza" AJ va uning hududiy bo'linmalarining xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol -mulikka sertifikat berish bo'yicha;

(b) "O'zInjiniring" loyiha institutining investitsiya loyihalarining loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha;

(v) "Milliy PR-markazi" DUKning O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini targ'ib qilishga yo'naltirilgan xorijiy kompaniyalarning prodyuserlik va reklama xizmatlarini, xorijiy teleradiokompaniyalar va boshqa ommaviy axborot vositalarining reklamalari, reportajlari va boshqa roliklarini tayyorlash va translyatsiya qilish bo'yicha;

(g) "Sag agro MTP" MCHJning yong'oq ishlab chiqaruvchilarga agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mexanizatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha;

(d) "O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasining milliy standartlarni shartnoma asosida boshqa tillarga tarjima qilish bo'yicha;

2025-yildan boshlab har yili:

(a) 1-aprelga qadar eksklyuziv huquq berilgan sohadagi vakolatli davlat organlari tomonidan Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga (keyingi o'rinlarda — Raqobat qo'mitasi) Reyestrda kirgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksklyuziv huquqlarini bekor qilish yoki saqlab qolish maqsadga muvofiqligi to'g'risida takliflar kiritilishi;

(b) 1-mayga qadar eksklyuziv huquq berilgan sohadagi vakolatli davlat organlarining takliflari Raqobat qo'mitasi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda o'rganib chiqilishi;

(v) 1-iyunga qadar Raqobat qo'mitasi tomonidan eksklyuziv huquqlarni bekor qilish yoki saqlab qolish maqsadga muvofiqligi yuzasidan umumlashtirilgan takliflar Vazirlar Mahkamasiga tegishli qaror qabul qilish uchun taqdim etilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-fevraldagi PF-35-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov, tuman hokimining qurilish va investisiya bo'yicha o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**